



ЎТКАЗИЛАДИГАН САНА
ВА ЖОЙ: 2022 ЙИЛ
4 МАРТ, ТОШКЕНТ

2022

ИЛМИЙ ТЕЗИСЛАРНИ
ҚАБУЛ ҚИЛИШ МҲДДАТИ:
2022 ЙИЛ 24 ФЕВРАЛГАЧА

ХОТИН-ҚИЗЛАРНИ ТАЪЙИҚ ВА ЗЎРАВОНЛИКДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ МАЪНАВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ МАСОФАВИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ



АНЖУМАНГА УЛАНИШ ЛИНКИ:

ИДЕНТИФИКАТОР:
ПАРОЛ:



WWW.TIAME.UZ



**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUXANDISLARI INSTITUTI”**

MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR “OLIMA” UYUSHMASI

TADQIQOT.UZ XALQARO ILMIY JURNALLAR PORTALI

XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING MA’NAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

2022 yil 4 mart



TOSHKENT -2022

XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING MA'NAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida respublikamiz xotin-qizlari ham faol ijtimoiy kuch sifatida ishtirok etib kelmoqdalar. "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti O'zbekiston xotin-qizlar "Olima" uyushmasi tadqiqot.uz xalqaro ilmiy jurnallar portali bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari" mavzuidagi xalqaro miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat ushbu to'plamda xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi gender siyosati, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarining tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilinishi, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlar, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etilishiga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari, tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish maqsadida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy hamkorligi, O'zbekiston qonunchiligida gender tengligi va xotin-qizlar huquqlari kafolatlari kabi dolzarb masalalar, ulardan kelib chiqadigan muhim vazifalar xususida tahliliy mulohazalar bildirilgan.

Mazkur to'plamda O'zbekistonda yangilanish jarayonidagi islohotlarda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish omillari, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlashda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayollarni oiladagi tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar o'z ifodasini topgan bo'lib, o'zining mazmun-mohiyati bilan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Taqdim etilayotgan ushbu xalqaro miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami turli soha mutaxassislari hamda keng ilmiy jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrirlar:

Ismoilova Z.K. – pedagogika fanlari doktori, professor

O'ljayeva Sh.M. – tarix fanlari doktori, professor

Djurayeva N.D. – tarix fanlari nomzodi, dosent

Ilmiy muharrir:

O'ljayeva Sh.M. – tarix fanlari doktori, professor

Babadjanova N.A. – tarix fanlari nomzodi, dosent

Tahrir hay'ati va a'zolari:

Mamadaminova B. – tarix fanlari nomzodi, dosent

Toliboyeva N.O. – PhD, katta o'qituvchi

Tuzuvchi:

Bazarova M.M.

"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishning ma'naviy-huquqiy asoslari"
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferentsiya materiallari (2022 yil 4 mart)

Использованная литература

1. Андреевский И. Благо // Энциклопедический словарь: в 86 т. / Ф.А. Брокгауз, И.А. Ефрон.-М., 1992. - Т.7. - С.40-41. - [репр. изд. 1902 г.]; Андреевский И. Благополучие // Энциклопедический словарь: в 86 т. / Ф.А. Брокгауз, И.А. Ефрон. - М., 1992. - Т.7. - С.52. - [репр. изд. 1902 г.].
2. Голенкова З.Т., Акулич М.М., Кузнецов В.Н. Общая социология: учебное пособие для вузов. - М., 2005. - 474 с.
3. Локк Дж. Сочинения в 3 т. - Т. 1. - М., 1985. - 622 с.
4. Марголин М. Штейн Лоренц // Энциклопедический словарь: в 86 т. / Ф.А. Брокгауз, И.А. Ефрон.-М., 1992.-Т.78.-С. 195-197.- [репр. изд. 1902 г.].
5. Жуков В.И. Социальная политика и социальное образование в России. - М., 1998. - С.430.
6. Сорокин П.А. Социальная мобильность / пер. с англ. М.В.Соколовой. - М., 2005.-588 с.
7. Сорокин П.А. Социальная мобильность / пер. с англ. М.В.Соколовой. - М., 2005.-с.123.
8. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/gender-equality/>

**JAMIYATDA AYOLLAR HOLATI HAQIDAGI QARASHLARNING EVOLUTSIYASI.
AYOLLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK JAMIYATDA IJTIMOIIY MUAMMO**

Imomqulova Fotima Ulug'bekovna
JDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Jamiyatda “zo‘ravonlik” deya atalgan termin yaqin yillar orasida paydo bo‘lgan emas. Jumladan, oilaviy zo‘ravonlik muammosini o‘rganish uchun tarixiy jihatdan uni tushunish, ko‘p asrlik an‘analarini hisobga olgan holda o‘rganilish kerak. Jamiyatdagi ayolning holati doimo jamoatchilik e‘tiborini tortadi. Turli yo‘nalishlarda bu masala bo‘yicha ilmiy fikrlar ko‘pincha salbiy tarzda bildirib kelingan.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, evolutsiya, ayol, fikr.

Bugungi kunda xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish borasida jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga oid bir qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda shaxsni zo‘ravonliklardan, shu jumladan oilada sodir etiladigan jinoiy zo‘ravonliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo‘yilgan. Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv oilani jamiyat asosidagi guruh deb tan oladi hamda shaxsni oiladagi zo‘ravonliklardan himoya qiladi. Odatda, zo‘ravonlik - bu oddiy ish yoki qo‘pol xatti-harakat emas. Buning o‘rniga, odatda, davom etmoqda va davom etmoqda. Bulliklar ko‘pincha qurbonlarini bir necha marotaba nishonga oladi. Ba’zida zo‘ravonlik, bolaning uy vazifasi yoki tushlik pulini talab qilish kabi bir xil ish bo‘lib qoladi. Boshqa paytlarda, maqsadli nomlarni chaqirish, ularni zallarda ochish va onlayn sharhlar yuborish kabi turli xil tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda gender tengligi tamoyillari zamonaviy jahon sivilizatsiyasining yagona qadriyat makonining tarkibiy qismi sifatida rasman tan olingan. Natijada, rivojlanish gender ta’limi fuqarolik ta’limining tarkibiy qismi sifatida: tinchlik va bag‘rikenglik, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, zo‘ravonlik va ekstremizmdan voz kechish qadriyatlarini keng targ‘ib etishdan asosiy maqsad hisoblanadi. Oiladagi zo‘ravonlik muammosini o‘rganishga yangi sotsiologik yondashuvni amalga oshirish, favqulodda vazifa shartlarni tushunish va tushunish bo‘lgan paytda juda

muhimdir. Ijtimoiy tengsizlikning mohiyati va kelib chiqishi haqidagi klassik nazariyalarni O.Kont, E.Dyurkgeym, M.Veber, K.Marks, F.Engels, 3.Freyd. Birinchi nazariy urinishlar oilaviy munosabatlar tahlili T.Gobbs, D.Lokk, J.Russo, K.Furye, A. de Sen-Simon, D.Mill, K.Stenton, kim erkaklarning jismoniy ustunligining ijtimoiy foydasini ifoda etgan ayollarning bo'ysunishini oqlangan. Tarixda Rus imperiyasida ayollarga munosabat bir muncha boshqach bo'lgan. Knyaz Vladimir qonunlarida oila qurgan erkak va ayolning ajrashishlari eng katta gunohligi, ibodatxonadagi nikoh haqiqiy hisoblanib, bu nikohda erning hisobi katta ya'ni er nohaq yoki ayoliga hiyonat qilsa ham bu nikohdagi ayol uni kutishi shartligi keltirilgan. Gollandiyalik Koet ismli boy shaxs "rus xalqi o'z xotinlariga juda ham qattiq munosabatda bo'ladi, ularni xatto tazyiq ostida xismatkordek saqlashadi. Bu holat esa ular uchun odatdagidek bo'lib, hech kimni havotirga solmaydi" deya fikr bildirilgan.

O'rta asr qarashlaridan Platon "Hokimiyat" nomli asarida, kelgusida eng namunali hokimiyat tuzilganda, ikki jins vakillari teng huquqli bo'lishadi. Ayollar ham janglarda ishtirok etib, jang sirlarini o'rganadi. Ammo ayollar tabiatining turfa bo'lsada, uning imkoniyati biz erkaklardan past bo'ladi, deya ta'kidlagan. Aristotelning "Siyosat" asarida ayol kishi zaif va nihoyasiz deya izoh beradi. "Oilada ayol kishi qaram bo'lish kerak (hizmatkorni nazarda tutmagan). Oilaning boshi – er, u hamma qarorni o'zi chiqaradi, u tabiatan shunday yaratilgan, ayol esa undan past va bo'ysungan xolda yaratilgan".

Yevropada renessans davrida Jan Jak Russo, ayol va erkak kishining imkoniyatlarini taqqoslab, ayol kishi erkak kishiga bo'ysunishi kerak xattoki erkak tomonidan qilingan nohaqlikka va zo'rvonlikka ham, deya ma'lumot qoldirgan. Erix From – nemisamerikalik psixolog, sotsiolog, neofreydizm asoschisi Falsafa, psixologiya, antropologiya, din sotsiologiyasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. O'z ta'limotini «gumanistik psixoanaliz» deb atagan. Freyd biologizmidan chekinib, shaxs shakllanishida psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro aloqalarini ochib berishga intilgan. XX asrning zo'rvonlik holatlarini o'rganib, "agar biz insoniyatda chuqur ildiz otgan bo'ysunish va zo'rvonlikni doimiy ravishda qabul qilishda davom etsak, bizning kelajakdagi orzularimizga erishishimiz qiyin kechib, maqsadga yetilmaydi. Bu esa davr muammosiga aylanadi".

Mintaqa mutafakkirlari – jadidlar qoloqlikka barham berishga da'vat qilganlarida, ayollarga zulm qilishga, ko'pxotinlikka qarshi chiqqanlar tasodif emas. Abdulla Qodiriy bu gapni "O'tkan kunlar" romani orqali aytgan. Abdulla Badriyning "Juvonmarg" drammasida yovuz erning xotini va kichik qizini shavqatsizlarcha qiynab, yo'q qilishiday ayanchli taqdiri dramatik tarzda tasvirlab berilgan. Bundan maqsad ayollarning tengsizligi muammosiga e'tibor qaratish edi. Qizig'i shundaki, AQSHlik tarixchi Marianna Kemp sho'rolar hokimiyatining dastlabki yillarida O'zbekistonda "ayollarni ozod qilish" g'oyasiga jadidlarning konsepsiyasi asos bo'lib xizmat qilganini aytadi. Kommunistik partiyada tenghuquqlilik g'oyalarini targ'ib qilgan bo'lsada, "ayollarning rolini o'zgartirish haqidagi ham erkak, ham ayol o'zbek faollariga qattiq ta'sir etgan g'oyalar bolsheviklarning rejasidan ko'ra jadidlar ta'limotiga vorislikni ko'proq ifoda qilari edi, degan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ерусланова Р.И., Миллюхин К.В., 2010- Насилие в семье- Москва 2010-12 ст.
2. Психологическая помощь детям, пережившим насилие. Пособие для психологов. — СПб.: Санкт-Петербургская общественная организация «Врачи детям», 2015. — 23 с.
3. А.Синельников, Е.А. Ипполитова, О.А. Казанцева, Т.А. Гуж-Социально-психологическая реабилитация женщин и детей, пострадавших от домашнего насилия: учебно-методическое пособие. – Барнаул, 2012.
4. www.dissercat.com

**O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILAR TAJOVUZKORLIK XUSUSIYATLARINI
OLDINI OLIISHNING BA'ZI JIHATLARI**

Kamolova Shirin O'sarovna

JDPI, katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan o'smir yoshidagi o'quvchilardagi tajovuzkorlik xususiyatlarini oldini olishning ayrim xususiyatlari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: tajovuzkorlik, ijtimoiy-psixologik ta'sir, psixologik, psixiatrik, delinkvent, negativizm, hasad, boshqalarga nafrat, shubha, og'zaki tajovuz, aybdorlik.

O'zbekistonni butun jahon tan olayotgan bugungi kunda yosh avlodni zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan barkamol insonlar bo'lib, XXI talablariga javob beradigan shaxs bo'lib voyaga etishi dolzarb masalalaridan biridir.

Ma'lumki ta'lim-tarbiya ongning mahsuli va ongning darajasi bo'lishi bilan birgat, ongning rivojlanishini ham belgilaydigan muhim omildir. Sir emaski xanuzgacha jamiyatimizda kam bo'lsada, o'smirlar o'rtasida delinkvent, ya'ni ma'naviy va huquqiy me'yorlarni buzilishi kabi xarakterlarning sodir etilayotgani xavotirli xolatdir. O'smirlik davriga xos delinkvent xulqning jumladan, agressivlik, chekuvchilik, alkogolizm, giyoxvandlik, internetdan ko'r-ko'rona foydalanish va ularning ijtimoiy moslasha olmasligi muammosi kuchayib borayotganligi bilan ajralib turadi. Voyaga etmagan o'smir yoshidagi bolalarning tajovuzkorlik xususiyatlarini oldini olish muammosi nafaqat respublikamizda, dunyo miqyosida ham dolzarb bo'lib turibdi. Chunki yoshlarimiz o'rtasida delinkvent xulq ko'rinishlarining yuzaga kelishi, keng jamoatchilik ota-onalar va, ta'lim-tarbiya, xodimlarini tashvishga solmoqda. "O'smirlik yoshi davri xavfli xatti-harakatlar bilan ajralib turadi. Buni ko'rsatadigan belgilardan biri bu muayyan yosh davridagi kasalliklarga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuqori o'limdir.

Xavfli xulq-atvor tajovuz bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, tuyg'ularida depressiv va salbiy hissiy holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Agar tajovuzni qabul qilingan me'yor va qoidalarga, umuman jamiyatda shaxsning mavjudligiga zid bo'lgan maqsadli buzg'unchi xulq-atvor deb tushunsak, o'smirlarning tajovuzkor xulq-atvorining sabablaridan birini tajovuzning frustratsiya nazariyasi bilan izohlash mumkin. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'smir o'zining jismoniy va psixologik ehtiyojlaridan doimiy norozilik bilan bog'liq umidsizlikni boshdan kechirayotgan paytda, bu tajribalar tajovuzkor xatti-harakatlarga yordam beradi. Shuningdek, tajovuzkor xatti-harakatlarning og'irligi va shakliga biologik va ijtimoiy omillar ta'sir qiladi. Psixologik adabiyotlarda o'smirlik yoshi davrida bolalar hissiy jihatdan beqaror bo'lib qolishi barchaga sir emas. O'smirlik yillari – ota-onalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab davr. Psixolog olimlar o'z navbatda biologik omillar bilan bog'laydilar: gormonal o'sish, tanani qayta qurish, balog'atga etish. Ammo ba'zi hollarda hissiy o'zgarishlar radikal shakllarga ega bo'lib, agressiyaga aylanishi mumkin. O'smir yoshidagi bolalar o'zining isyonkorligi bilan yolg'iz qolsa, bu uni buzg'unchilik sifatlarini yuzaga kelish va natijada huquqbuzarlikka yoki tajovuzkorlik xususiyatlariga olib kelishi mumkin.

Bu muammoni oldini olish o'smirlik davrida tajovuzkor xatti-harakati tajovuzkor e'tiqod va munosabatlar, o'smir o'sib ulg'aygan muhitida yuqori darajadagi dushmanlik, o'smirlik davriga xos impulsivlik, hissiy va ijtimoiy o'zini o'zi boshqarish qobiliyatining shakllanmaganligi bilan qo'zg'atilishi mumkin. Psixologik adabiyotlarda o'smirlarning tajovuzkor xulq-atvorining turli xil ko'rinishlari mavjud ko'pchilikka sir emas, ular ham ijtimoiy, ham jamiyatga ziddir. Agressiv xatti-harakatlarning ko'plab o'ziga xos shakllari mavjud. Bu borada tadqiqotchi A. Bass tomonidan tajovuzkor xatti-harakatlar tasnifiga ko'ra, quyidagi shakllar ajratilgan: jismoniy, bilvosita, negativizm, hasad, boshqalarga nafrat, shubha, og'zaki tajovuz, aybdorlik orqali manipulyatsiya. O'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan